

## Yirik sanoat haftaligi ko'rgazmasida

"Gidromelioratsiya" fakulteti 110 - guruh talabalari guruh murabbiyi Q.Eshquvatov va "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrası dotsenti Sh.Akmalov bilan birgalikda O'zEkspo markazida tashkil qilingan "INNOPROM" O'zbekistonda yirik sanoat haftaligi ko'rgazmasida ishtirok etishdi.



Ko'rgazmada talabalar innovatsion ishlanmalar asosida yaratilgan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalar bilan tanishishdi. Tanishuv jarayonida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan mutaxassislarga murojaat qilishdi va kerakli javoblarni olishdi. Shundan keyin talabalar ko'rgazmaning boshqa pavilyonlari bilan tanishib yuqori taassurotlar, yangi g'oyalarni ta'lim maskaniga qaytishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**